



SIL KASALLIGINI JARROHLIK YO'LI BILAN DAVOLASH USULLARI

Muallif: Gulasal Raximova Odiljon qizi

*Rishton Abu Ali ibn sino nomidagi Jamoat Salomatligi
texnikumi bosh o'qtuvchisi*

Annotatsiya: Sil kasalligi (tuberkulyoz) bugungi kunda ham butun dunyo bo'ylab dolzarb sog'lqni saqlash muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Asosan dorilar bilan davolanishiga qaramay, ba'zi holatlarda silni jarrohlik yo'li bilan davolashga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu maqolada sil kasalligini jarrohlik usullar bilan davolash yo'llari, ularning afzalliklari va ko'rsatmalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: sil, tuberkulyoz, jarrohlik davolash, pnevmonektomiya, kavernotomiya, reabilitatsiya

Kirish

Sil — Mycobacterium tuberculosis bakteriyasi chaqiradigan yuqumli kasallik bo'lib, asosan o'pka to'qimalarini zararlaydi. Garchi zamonaviy antituberkulyoz dori vositalari mavjud bo'lsa-da, ayrim hollarda kasallik dori-darmonlarga chidamli shaklga o'tadi yoki asoratlar rivojlanadi. Bunday vaziyatlarda jarrohlik aralashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

1. Jarrohlik davolashga ko'rsatmalar

Sil kasalligini jarrohlik yo'li bilan davolash quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

- Dori-darmonlarga chidamli sil (MDR-TB, XDR-TB);
- Yirik kavernalar (bo'shliqlar) mavjud bo'lsa;
- Gemoptiziya (qon tuflash) yuzaga kelgan holatlar;
- Sil yiringli asoratlar (masalan, plevral empiema);
- Tashxis qo'yish maqsadida biopsiya qilish zarur bo'lsa.

2. Asosiy jarrohlik usullari



a) **Kavernotomiya** Bu usulda o‘pka to‘qimasida hosil bo‘lgan kavernozi bo‘shliq ochilib, ichidagi yiring, nekrotik to‘qima tozalanadi. Jarayon natijasida infeksiya manbai yo‘q qilinadi.

b) **Lobektomiya** Zararlangan o‘pka bo‘lagi (lob) olib tashlanadi. Ushbu usul faol kavernozi silda, mahalliy o‘choqli shakllarda qo‘llaniladi.

c) **Pnevmon ektomiya** Barcha o‘pka to‘liq olib tashlanadi. Bu usul faqat og‘ir holatlarda, o‘pkaning to‘liq zararlanishida qo‘llaniladi.

d) **Torakoplastika** O‘pkaning ichki bosimini kamaytirish va bo‘shliqni yopish maqsadida qovurg‘a suyaklari olib tashlanadi. Endilikda kam qo‘llaniladi, ammo ba’zi hollarda samarali hisoblanadi.

e) **Videotorakoskopik jarrohlik (VATS)** Zamonaviy, kam invaziv usul bo‘lib, maxsus kamera va uskunalar yordamida kichik kesmalar orqali amalga oshiriladi. Bu usul diagnostik maqsadlar uchun ham juda foydali.

3. Jarrohlikdan keyingi reabilitatsiya

Operatsiyadan so‘ng bemor maxsus parvarish va reabilitatsiyaga muhtoj bo‘ladi:

- Davomiy antituberkulyoz terapiya (kamida 6 oy);
- Fizioterapiya mashg‘ulotlari;
- Imun tizimini mustahkamlovchi dori vositalari;
- Psixologik va ijtimoiy yordam.

Xulosa

Sil kasalligini jarrohlik usulda davolash — bu kompleks davolash jarayonining muhim qismidir. Dorilarga chidamlı shakllarda, og‘ir kavernozi silda va boshqa asoratlari holatlarda jarrohlik aralashuvi hayotni saqlab qolishi mumkin. Har bir bemor uchun individual yondashuv asosida davolash rejasi tuzilishi kerak. Jarrohlik bilan davolash zamonaviy tibbiyotda silga qarshi kurashning samarali yo‘llaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ofurov I.M. “Ftoraks jarrohligi asoslari”. Toshkent: Tibbiyot, 2019.
2. WHO. “Global Tuberculosis Report”. Geneva, 2023.



3. Karimov A.R. "Sil kasalligini zamonaviy davolash usullari". O'zbekiston Tibbiyot jurnali, 2022.
4. Ministry of Health. "Tuberkulyozga qarshi milliy dastur". Toshkent, 2024.